



ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA KOXLEAR IMPLANTATSIYA VA UNING SAMARADORLIGI

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Namangan filiali pedagogika-psixologiya kafedrası
o'qituvchisi Latibjonova Ziyoda Nazirjon qizi
Maxsus Pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi
Odiljonova Ruxshona Abrorjon qizi*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233554>

Annotatsiya: Koxlear implantatsiya eshitish qobiliyatini yo'qotgan insonlarga eshitishni tiklashda yordam berish uchun qo'llaniladigan jarrohlik amaliyotidir. Koxlear implantatsiya eshitish qobiliyatini tiklash yoki yaxshilash uchun quloq ichiga o'rnatiladigan maxsus elektron qurilma bo'lib, u koxlea deb ataladigan ichki quloq qismiga implantatsiya qilinadi. Bu implantat eshitish nervini elektr signallari bilan stimulatsiya qilib, tovushlarni miyaga yetqazish imkonini beradi. Koxlear implantatsiya asosan eshitish qobiliyati to'liq yoki deyarli yo'qotgan odamlarga yordam beradi.

Kalit so'zlar: koxlear implantatsiya, jarrohlik amaliyoti, nutq protsessori, elektr signal, tovush, eshitish apparatlari, koxlear, rehabilitatsiya jarayonlari, terapiya.

Koxlear implantatsiya - bolalarda eshitish qobiliyatini tiklash va ularning rivojlanishi uchun katta foyda beradi. Ayniqsa, eshitish qobiliyati tug'ma yoki yoshligida yo'qotilgan bolalar uchun koxlear implantatsiya muhim ahamiyatga ega, chunki bu qurilma bolalarga qator imkoniyatlar yaratib beradi. Eshitish qobiliyati bo'lmagan bolalarda til va nutq rivojlanishi qiyinlashadi va koxlear implantatsiya yordamida bola tovushlarni Eshita boshlaydi va til o'rganishi osonlashadi. Erta yoshlarda implant qilingan bolalarda nutq qobiliyati sezilarli darajada o'zgaradi ya'ni rivojlanadi. Koxlear implantatsiya jarayoni eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalalar uchun katta imkoniyatlarni taqdim etsa-da, uning muntazam terapiya va oilaning qo'llab-quvvatlashi juda muhim hisoblanadi. Koxlear implantatsiya jarayonida muammo va kamchiliklar ham kuzatilishi mumkin. Masalan murakkab rehabilitatsiya -bu jarayonda jarrohlik amaliyoti va uzoq muddatli rehabilitatsiyani talab qilgani uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Hamma uchun mos emasligi-implantatsiyada barcha eshitish nuqsonlariga mos kelavermaydi. Ba'zi nuqsonlarda bu amaliyotni foydalanish cheklangan. Jarayon va vaqt- odatda, implantatsiya bolalarda 12 oylikdan boshlab qo'llanilishi mumkin. Jarayon jarrohlik amaliyotini va keyingi rehabilitatsiya bosqichini o'z ichiga oladi. Bolalarda implantatsiyadan keyin 3-4 hafta oralig'ida bolalarga nutq protsessori o'rnatiladi va eshitish qobiliyatini rivojlantirish ishlari boshlanadi. Bolaning umumiy rivojlanishi (novebral intellekti, intellekti, motorikasi, xotirasi, diqqati) surdopedagog tomonidan olib boriladi. Oila a'zolariga psixologik yordam ko'rsatiladi. Rehabilitatsiya jarayonlari 4 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Nutq protsessorini sozlash
2. Eshitish qobiliyatini va nutqni rivojlantirish
3. Bolaning umumiy rivojlanishi, xotirasi, e'tibori, qobiliyatini rivojlantirish
4. Bola va uning oilasiga peda-psixologik yordam ko'rsatish kabilar rehabilitatsiya jarayoni bosqichlari hisoblanadi.

Rehabilitatsiya jarayoni va uning samarasi, natijalari qator omillarga bog'liq bo'ladi. Koxlear implantatsiya kelib chiqishi va tarixi XX asrning o'rtalariga borilib taqaladi. Bu texnologiya eshitish yo'qotilishiga chalingan odamlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdiva 1970-yillardan boshlab keng rivojlanib, ommalasha boshladi. Dastlabki yutuqlar va tajribalar 1950 va 1960-yillarda tadqiqotchilar eshitishini elektr impulslar yordamida tiklash mumkinligini o'rganishdi. Dastlabki tajribalar orqali ular quloq nerviga o'rnatiladigan elektrodlar yordamida tovush signallariga berishga muvaffaq bo'lishdi. Fransuz tadqiqotchi Andre Dyurvoshua va amerikalik jarroh Uilyam House koxlear implantning ilk prototiplarini yaratishgan. 1972-yilda



AQSH birinchi tijorat koxlear implantini ya'ni House/3M deb nomlanuvchi oddiy bir kanalli implant ishlab chiqariladi. Bu oddiy implantni tovushlarni aniq qabul qilish imkonini bermasa ham, asosiy tovushni his qilishga yordam berdi. 1990-yilga kelib koxlear implantatsiya texnologiyasi tez sur'atlarda rivojlana boshladi. Zamonaviy koxlear implantlar tovushlarni ancha sifatli va tabiiy qabul qila oladigan darajaga yetdi. Kompyuter texnologiyalari, batareya quvvatining oshishi, va eng yangi audio algoritmlar yordamida koxlear implantlar yanada samarali bo'ldi va turli yoshdagi bemorlarga moslashtrildi. Bugungi kunda koxlear implantatsiya jarayoni ko'plab mamlakatlarda keng qo'llanilib, millionlab odamlar uchun eshitish va jamiyat bilan muloqot qilish imkonini yaratmoqda.

Koxlear implantatsiya jarrohlik jarayoni bosqichlarga bo'lingan xolatda amalga oshiriladi.

1. Tayyorlanish; jarayondan oldin bemor audiolog va otolaringolog (quloq, tomoq, burun shifokori) tomonidan batafsil tekshiruvdan o'tadi. Eshitish qobiliyati va boshqa muhim tibbiy ko'rsatgichlar o'rganiladi. Qolaversa kompyuter tomografiyasi yoki magnit-rezonans tomografiya (MRI) yordamida ichki quloq tuzilishi o'rganiladi.

2. Narkoz. Operatsiya umumiy narkoz (uyqu holatdagi og'riqsizlantirish) ostida o'tqaziladi, shunda bemor hech qanday og'riq sezmaydi.

3. Implantatsiya- jarroh quloq orqasida kesik ochadi va chakka suyagi ichiga kiradi. Keyin jarroh eshitish (koxlea) nerviga yaqin joyda kichik teshik ochiladi va implantning elektrodleri ichki quloqdagi koxlea kanaliga kiritadi.

4. Jarrohlikni tiklash; Elektrodler va qurilma joylashtrilgandan so'ng, kesik tikiladi. Bemor bir necha soatdan keyin uyga jo'natish uchun tayyorlanishi mumkin. Amaliyotdan keyingi reabilitatsiya jarayonlar bemorga bir necha haftalik davolanish va tiklanish jarayoni kerak bo'ladi. Shundan so'ng implant sozlanadi va tashqi tovush qabul qiluvchi qurilma o'rnatiladi. Jarayon tugagandan keyin bemorga eshitishni o'rganish uchun audiologik reabilitatsiya kerak bo'ladi, chunki yangi tovush signallarini to'g'ri farqlash uchun vaqt va maxsus mashg'ulot talab etiladi. Jarrohlik xavflari, implantatsiya boshqa har qanday jarrohlik amaliyoti kabi ba'zi xavf-xatarlarga ega; infeksiya yoki qon ketishi, eshitish yoki balans bilan bog'liq muammolar, quloq atrofida sezuvchanlikning o'zgarishi.

Umuman olganda, koxlear implantatsiya jarayoni nisbatan xavfsiz va ko'plab bemorlar uchun muvaffaqiyatli o'tadi. Zamonaviy tibbiyotda ushbu amaliyot samarali va bemorlar uchun katta yordam beradi. Bolalarda koxlear implantatsiyadan so'ng moslashish jarayoni asta-sekinlik bilan kechadi va ko'pincha maxsus reabilitatsiya va trening talab etadi. Bu jarayon bolaning eshitish va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatda ega. Bolaning eshitish tizimi elektr signallarga moslashishi uchun vaqt talab etadi. Jarayonlardan so'ng maxsus terapiya lardan foydalanadi ulardan masalan

1. Eshitish terapiyasi- bu bola eshitishni amalda o'rganishlari uchun terapiya o'z ichiga ovozli mashg'ulotlar, ovozlarni farqlash mashqlarni oladi. Audiologlar bolaga yangi tovushlarni tanib olishda yordam beradi.

2. Nutq terapiyasi- bolalar eshitishini o'rgangan sari, nutq rivojlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Logopedlar bolaning nutqini rivojlantirish uchun maxsus darslar o'tqazadilar. Nutq terapiyasi bolaning ovozlarni to'g'ri tallafuz qilishiga va tushunishiga yordam beradi.

3. Oila qo'llab-quvvatlashi; Bolaning ijtimoiy rivojlanishi uchun oilaning ishtiroki juda muhim. Ota-onalar va yaqinlar bolaga yangi tovushlarni o'rganish va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishda ko'maklashishlari mumkin. Moslashish jarayoni bolaga individual yondashuv va doimiy qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Bolaning yoshiga, eshitish qobiliyati darajasiga va individual o'rganish qobiliyatiga qarab, bu jarayon har xil vaqt davom etishi mumkin. Texnologiya, reabilitatsiya, va ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi bilan ko'p bolalar koxlear implantatsiya dan keyin muvaffaqiyatli moslashadiva ijtimoiy rivojlanishlari davom etadi. Koxlear implantatsiya dagi yutuqlar eshitish nuqsoni bilan yashovchi insonlar uchun qulay imkoniyatlarni yaratdi. So'nggi yillarda koxlear implantatsiyadagi yutuqlar sezilarli darajada oshib, eshitish qobiliyatini yo'qotgan millionlab odamlarning hayot sifatini yaxshiladi. Yana bir yutuq shundaki erta yoshda qo'llanilishi; KI juda yosh bolalarda, hatto bir yoshga to'lgan bolalarda ham amalga



o'shirilmoqda. Bu imkoniyat ularga yoshligidan tovushlarni o'rganish, nutq va tilni rivojlantirish imkonini beradi. Imunitet va xavfsizlikni oshirish texnologiyalari; Zamonaviy implantning allergik reaksiyalarga va tana tomonidan rad etilishi xavfini minimallashtiradigan biokompatibil materiallaridan ishlab chiqilmoqda, bu esa xavfsizligini oshiradi.

Xozigi kunga kelib Ziroat Mirziyoyeva tomonidan tas'is etilgan „Zamin Fondi“ 2019-yilda tashkil qilinib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga koxlear implantatsiya amaliyotlari tashkil qilinmoqda. Shuni aytib o'tish joizki, implantatsiya orqali bemorlar yoki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tovushlarni farqlay olishni boshlaydilar, bu esa nutqni tushunish va o'z nutq qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Bu ayniqsa bolalar uchun muhimdir, chunki ular o'z tengdoshlari bilan muloqot qilishida qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Implantatsiyada eshitish va nutq qobilyatlari tiklanib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim olishva jamiyatga moslashishni yengillashadi. Eshitish qobilyatining tiklanishi ularga maktab, ish va ijtimoiy hayotda muvaffiqatga erishishga yordam beradi. Eshitish qobilyatining tiklanishi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradiva ularning kundalik hayotini yengillashtiradi, bu esa ularning psixologik holatiga ijobiy ta'sir qiladi. Umuman koxlear implantatsiya jarayoning asosiy maqsadi eshitish qobiliyati cheklangan insonlarga hayot sifatini yaxshilash imkonini yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007
2. Koroleva I.V. Kar bolalar va kattalami koxlear implantatsiya qilish (elektrod eshitish protezlari). - SPb.: KARO, 2008
3. Mamarajabova Z.N. Koxlear implantli eshitish moslamalari o'rnatilgan, zaif eshituvchi bolalar eshituv-nutqiy rehabilitatsiyasi- Toshkent:
4. Kuzmicheva E.P., Yaxnina S.Z. Kar bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish. - M., 2003 yil.
5. Koroleva I.V. Koxlearnaya implantatsiya gluxix detey i vzrosלבix (elektrodnoye protezirovaniye sluxa) SPb.: KARO, 2009. (15-19b).
6. Mamarajabova Z.N. Koxlear implantli eshitish moslamalari o'rnatilgan, zaif eshituvchi bolalar eshituv-nutqiy rehabilitatsiyasi- Toshkent: AktivPrint, 2020.